

JAHON DINLARIDA INSONIYAT KELAJAGI HAQIDA TASAVVURLAR

Muallif:

EGAMBERDIYEV AHRORXON AVAZXON O'G'LI

Ilmiy rahbar:

SAMATOV XURSHID O'LMASJONVICH

Annotatsiya. Har bir diniy an'anada kelajak haqidagi qarashlar, bashoratlar va falsafiy konsepsiyalar ko'rib chiqiladi. Maqolada dinlararo umumiy va farq qiluvchi jihatlar, shuningdek, zamonaviy dunyoda bu tasavvurlarning ahamiyati yoritilgan. Ushbu maqolada jahon dinlarida (Islom, Xristianlik, Buddizm, Hinduizm va boshqalar) insoniyat kelajagi haqidagi tasavvurlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: din, insoniyat, kelajak, qiyomat, ma'rifat, axloq, taraqqiyot, tasavvurlar, xristianlik, buddizm, jahon dinlari.

Insoniyat tarixi davomida dinlar insonning mavjudligi, dunyoning tug'ilishi va oxiri haqida turli talqinlar taklif etgan. Har bir din o'zining ilohiy kitoblari, rivoyatlari va falsafiy qarashlari orqali insoniyat kelajagini izohlashga harakat qilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi – turli dinlardagi kelajak tasavvurlarini tahlil qilish va ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini aniqlash. Jahon dinlarida - jahondagi juda ko'p xalqlar e'tiqod qiladigan buddizm, xristianlik va islomga nisbatan ishlatiladigan termin. Jahon dinlari jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida buyuk tarixiy burilishlar, bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish davrlarida vujudga kelgan. Ta'kidlash joizki, kishilik jamiyatining turli tarixiy davrlarida din jamiyatda faqat e'tiqod manbai sifatidagina emas, balki muayyan tabaqalarning boshqa insonlarga ta'sir etish, ularni dunyoga munosabati va turmush tarzini boshqarishga

xizmat qiluvchi mafkuraviy vosita vazifalarini o'tab kelgan. Diniy omildan ayrim manfaatparast kuchlar siyosiy maqsadlarda foydalanishi mutaassib diniy harakatlarning vujudga kelishida sabab bo'lgan. Jahon dinlari tarixiy jarayonda jahon imperiyalari, davlatlar tarkib topayotgan paytlarda paydo bo'lgan. Jahon dinlariga prozelitizm, faol targ'ibotchilik xosdir, ularning targ'ibotlari xalqlar va millatlararo diniy bag'rikenglikka asoslangan.

Islomda oxirat e'tiqodi markaziy o'rinda turadi. Islomda insoniyat kelajagi Islom dinida insoniyat kelajagi Qiyomat kuni (Yaum al-Qiyamah) va oxirat hayoti bilan bog'liq. Qur'onda bu dunyo – sinov maydoni, oxirat esa abadiy yashash joyi sifatida ta'riflanadi. Mahdiy va Iso payg'ambarning qaytishi – oxirzamon belgilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Islomda Iso alayhissalom qaytib kelib, adolatni tiklaydi va yolg'on dinlarga chek qo'yadi. Qiyomat kuni – butun insoniyat tiriltiriladi va har kim o'z amallariga qarab mukofot yoki jazoga mustahiq bo'ladi. Jannat va do'zax – abadiy yashash joylari sifatida ta'riflanadi. Biroq, Islom faqat oxiratga emas, balki dunyoviy adolat va insoniy kamolotga ham urg'u beradi. Islom tamoyillari bo'yicha qurilgan jamiyat – insoniyatning yorqin kelajagi sifatida ko'riladi. Xristianlikda ham qiyomat (Apokalipsis) g'oyasi mavjud. Injilda "Iso Masihning ikkinchi kelishi, shaytonning mag'lubiyati va yangi osmon va yangi yerning yaratilishi haqida gap boradi. Vahiy kitobida janglar, ofatlar va oxirgi qiyomat" tasvirlangan. So'nggi sud – barcha insonlar tiriltiriladi va xatti-harakatlari asosida hukm qilinadi. Yangi Yer va Yangi Osmon – solihlar uchun mo'ljallangan abadiy saodat dunyosi. Xristianlikda insoniyat kelajagi – bu Alloh bilan abadiy tinchlik davri (Qirollik). Shu bilan birga, sevgi, rahm-shafqat va inson qadr-qimmatini himoya qilish – bu dunyoda yaxshilik uchun kurashishning asosiy tamoyillaridir. Buddizmda kelajak siklik jarayon sifatida ko'riladi – karma qonuni va qayta tug'ilishlar davomiyligi. Maitreya Budda – kelajakda paydo bo'lib, odamlarni najot sari boshlaydi. Karma qonuni – har bir inson o'z harakatlariga binoan keyingi hayotini shakllantiradi. Insoniyatning yakuniy maqsadi – Nirvanaga erishish, ya'ni azob-uqubatlardan xalos bo'lish. Hinduizmda ham kelajak sikl (Yuga nazariyasi) bo'yicha tushuntiriladi. Hozirgi davr – Kali Yuga (yovuzlik

davri) deb hisoblanadi, lekin keyin yangi oltin davr (Satya Yuga) boshlanadi. Yahudiylikda Masih (Mashiax) kelishi va butun dunyoda tinchlik oʻrnatilishi kutiladi.

IMOM AL-BUXORIY aytadiki: “Insonlarning amali ularning niyatlariga bogʻliq. Har kimga qilgan amali evaziga jazosi yoki mukofoti beriladi.”

Ahmad Yassaviy esa shunday deydi: “Olam ahli yomon boʻlsa, sen yaxshi boʻl, Yaxshilikka yetaklaydi doim sabr. Bu dunyo imtihondir, oxirat mukofot yoki jazodir.” U kelajak najotini sabr, toqat, maʼnaviy poklik bilan bogʻlaydi.

Turli dinlarda insoniyat kelajagi haqidagi tasavvurlar tafsilotlarda farq qilsa-da, ularning umumiy jihati – yaxshilik, adolat va maʼnaviy kamolot gʻoyalarini targʻib qilishdir. Zamonaviy jamiyatda bu qarashlar insonlarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va global muammolarga (urushlar, ekologik inqiroz) duchor boʻlgan dunyoda umid va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlovchi rol oʻynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qurʼoni Karim – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari qoʻmitasi, 1992.
2. Muhammad Ali – Jimjitlik
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jahon_dinlari
4. <https://n.ziyouz.com>
5. Dinshunoslik: nazariy va amaliy jihatlar. Nematov, A. & Murodov, Nashriyot: “IQTISOD-MOLIYA”, Toshkent, 2017
6. Jahon dinlari tarixi. Xoliquil Bexzodov. – Nashriyot: “Oʻqituvchi”, Toshkent, 2009.
7. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13391_2_3987D9BBEBAB17941114C7425D231983A5DDB955.pdf

8. Islom ensiklopediyasi. (1–8 jildlar), Nashriyot: “Sharq” NMAK, Toshkent, 2000–2005 yillar